tidan, realizasiya qilinmagan ma'lumotlar bilan ishlash, undan, haqiqatan ham, muhim qismini ajratib olish qobiliyatini shakllantirish hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda muammoli ma'lumotlarni o'rganish amalga oshiriladi. Bu tizimsiz ma'lumotni muammoli real vaziyatga aylantirish uchun amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqichning vazifasi belgilangan maqsadni, keyinchalik, e'lon qilish bilan bog'liq asosiy muammoni shakllantirishdir. Ushbu bosqichda talaba vazifani hal qilishning strategik tanlovi bilan bog'liq ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Keyingi bosqich – bu taktikaning bir turi (shakllangan muammoni hal qilish taktikasi aniqlanadi). Talaba asosiy muammo (vazifa) yechimini ishlab chiqishni amalga oshiradi.

Yakuniy bosqichda muammoni hal qilish jarayonining refleksli tahlili o'tkaziladi. Talaba o'z yechimini tekshiradi va keyin uning samaradorligini baholaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Iqtisodiyot yo'nalishidagi talabalarga ixtisoslik fanlarini o'qitishda innovatsion shakl va usullarni keng joriy etish, ularni nafaqat yuqori sifatli bilimga ega bo'lgan mutaxassis sifatida tayyorlash, balki zamonaviy dunyoning iqtisodiy, texnologik va axborot sohalaridagi o'zgarishlarga tez moslasha oladigan shaxs sifatida shakllantirish uchun ham muhimdir. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va uning pirovard maqsadiga erishishga yordam beradi. Shu sababli pedagoglar zamonaviy yondashuvlarni o'zlashtirishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq etishi zarur. Innovatsion ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonini interfaol, qiziqarli va raqamli asr talablariga mos tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Ahmedov R.R. Innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2020, 220 bet.

(2). Abduxalilov A.A., Yusupov A.M. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent, "Ma'rifat", 2019, 185-bet.

(3). Дьюи Д. Демократия и образование. Москва, "Академия", 2021 330 с.

(4). Yuldashev N.K., Karimov U.N. Innovatsion pedagogika va ta'lim metodlari. Toshkent, "O'qituvchi", 2022, 210 bet.

(5). Батурин В.С. Современные образовательные технологии: теория и практика. Санкт-Петербург, "Питер", 2020, 276 с.

(6). Jonassen D.H. Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Based Learning Environments. Routledge, 2022, p. 320.

(7). Kozma R.B. Technology and the Quality of Education. UNESCO, 2019, p. 245.

(8). Boud D., Feletti G. The Challenge of Problem-Based Learning. Routledge, 2021, p. 280.

(9). OECD. Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills. Paris, OECD Publishing, 2020.

(10). Dewey J. Experience and Education. New York, Free Press, 2019, p. 176.

(11). Qurbonov A.A., Hasanov A.N. Ta'limda raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. Toshkent, TDPU nashriyoti, 2021, 198-bet.

Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna (Urganch Innovatsion universiteti o'qituvchi-stajori)

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA BADIIY MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida matnlar, ularni tahlil qilishning innovatsion usullari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Badiiy matnda hayot obrazlari aks ettiriladi va uning markazida inson, tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy matni ustida ishlashda o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash masalalariga ham to'xtalib o'tgan. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida berilgan matnlar ustida ishlash orqali ularda vatanparvarlik tug'ularini shakllantirishning bir qancha bosqichlari haqida fikrlar yuritilingan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich sinf, ona tili darsi, matn, analiz, sintez, usul, badiiy matn.*

Уразбоева Сабохат Артикбоевна (преподаватель-стажер Ургенчского Инновационного университета)

МЕТОДИКА РАБОТЫ ПО ЛИТЕРАТУРЕ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. *В данной статье приводятся отзывы об инновационных методах анализа текстов и их анализа на уроках родного языка в начальной школе. В художественном тексте отражены образы жизни, и в центре его находится человек, его отношение к природе и обществу. Работая над художественным текстом, учитель затрагивает и вопросы духовного воспитания студентов.*

Авторы рассмотрели несколько этапов формирования патриотических чувств в процессе работы над художественным текстом на уроках чтения.

Ключевые слова: *начальный класс, урок родного языка, текст, анализ, синтез, метод, художественный текст.*

Urazboyeva Sabohat Artikboyevna (Teacher-trainee at Urganch Innovation University; e-mail: sabohat@icloud.com; https://orcid.org/0009-0000-2277-1488)

METHODOLOGY OF WORKING ON LITERATURE IN MOTHER LANGUAGE LESSONS IN PRIMARY GRADE

Annotation. *This article provides feedback on innovative methods of analyzing texts and their analysis in elementary school mother tongue classes. In the artistic text, images of life are reflected, and at the center of it is a person, his relationship to nature and society. While working on the artistic text, he also touched upon the issues of spiritual education of students. By working on the texts given in the primary class mother tongue classes, they discussed several stages of formation of patriotic feelings.*

Keywords: *elementary class, mother tongue lesson, text, analysis, synthesis, method, artistic text.*

Kirish (introduction). Kishilik jamiyatida nutqning ahamiyati juda katta bo‘lib, ko‘p jihatdan jamiyatning rivojlanishi va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Nutq bu nafaqat aloqa vositasi, balki insonlarning fikrlarini, tuyg‘ularini, qadriyatlarini, g‘oyalarini ifoda etish, boshqalar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish va o‘zaro tushunishni ta’minlash imkonini beradigan asosiy vositadir.

Unsurul-Maoliy Kaykovus o‘zining «Qobusnoma» nomli asarida farzandiga qarata shunday deydi: “...Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har ne so‘z desang, yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o‘xsharsankim, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas. ...So‘zni bag‘oyat ulug‘ bilg‘il, so‘z osmondin kelmas va ul xor narsa emasdir. Qay bir so‘zniki bilsang, joyini o‘tkazmay aytkil, vaqtni zoe qilmagil, yo‘q ersa donishga sitam qilg‘on bo‘lg‘aysan. Har so‘z desang, rost degil va bema’nilikni da’vo qilguvchi bo‘lmag‘il” [1].

Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashga o‘quvchilarni jalb qilish o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qiluvchi pedagogik jarayon sanaladi. Har qanday pedagogik jarayon kabi, boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashda ham muayyan psixologik, pedagogik, metodik talablar inobatga olinishi zarur. Shundagina boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn bilan ishlash orqali muayyan bilimlarni o‘zlashtiradi, ravon va ongli o‘qish ko‘nikma-malakalariga ega bo‘ladi, nutqi boyiydi hamda fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan talablar ijrosiga erishiladi. 1–2-sinf ona tili darslarida badiiy matn ustida ishlash metodikasi bolajonlarning tilni o‘rganish, nutqni rivojlantirish va adabiy tafakkurni oshirish uchun juda muhimdir [2]. Ular uchun matn ustida ishlash jarayoni qiziqarli, o‘rgatuvchi va faol bo‘lishi kerak. Bolalar matn mazmunidan tarbiya jihatlarini o‘rganishi va ularga amal qilishida turli xil metodik ishlar olib borilishi zarur. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, avvalo, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e’tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod (materials and methods). Ma’lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg‘ulari ham ifodalanadi. Boshlang‘ich sinflarning “Ona tili” darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilar ushbu jihatni ham o‘zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. 1–2-sinflarda badiiy matn bilan ishlashning samarali metodikasi o‘quvchilarning tilni rivojlantirish, adabiy tafakkurini shakllantirish va ijodiy fikrlashni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu yoshdagi bolalar uchun matnlarni qiziqarli, tushunarli va ko‘ngilochar tarzda ishlash juda muhimdir. Quyida badiiy matn bilan ishlashning samarali metodikasini ko‘rib chiqamiz:

1. Matnni tanlash va tanishtirish. Matnni bolalarga moslashtirish 1–2-sinf o‘quvchilari uchun tanlangan matn o‘z yoshlariga mos, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Masalan, ertaklar, qissalar yoki o‘rgatish maqsadida yozilgan kichik hikoyalar yaxshi tanlov bo‘lishi mumkin. Matnni o‘qishdan oldin kontekst berish, o‘qishni boshlashdan oldin bolalarga matn haqida qisqacha ma’lumot berish, qahramonlar va ularning holatlari haqida so‘zlab berish ularni matnga tayyorlaydi.

2. Matnni o‘qish. Diksiya bilan o‘qish o‘qish jarayonida o‘qituvchi matnni aniq va aniq talaffuz bilan o‘qishi kerak. Bu bolalar uchun nutqning to‘g‘ri talaffuzi va tembrini eshitishga yordam beradi. Bolalarni ham o‘qishga undash o‘qituvchi o‘quvchilarni ham matnni birgalikda o‘qishga undashi kerak. Ularni o‘qishga jalb qilish, ularning ishtirokini oshirish va o‘zlari matnni tushunishga harakat qilishiga yordam beradi.

3. Matnni tahlil qilish. Savatli savollar berish matnni o‘qib bo‘lgach, o‘qituvchi o‘quvchilarga matnni tushunishga yordam berish uchun savollar berishi kerak. Bu savollar qahramonlarning harakatlari, voqea rivoji, sabab-natijalar va boshqalar haqida bo‘lishi mumkin. Matnning mazmuni haqida suhbat o‘qituvchi o‘quvchilarni matnning mazmuni, undagi asosiy g‘oya, saboqlar va qahramonlarning xulq-atvori haqida suhbatga jalb qilish kerak.

4. Badiiy matn bilan interaktiv ishlar. Matndan ilhomlanib, bolalar rasmlar chizishlari mumkin. Bu ularning tasavvurini rivojlantiradi va matnni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi.

Rol o‘ynash ovquvchilarni matnning qahramonlariga aylantirish va ularning rolini o‘ynashga undash matnni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Matnni yakunlash bolalar matnni o‘qib chiqqandan so‘ng, o‘zingizning yakuniy fikrlaringizni so‘rang yoki matnni qanday tugashini o‘ylab topishga undang.

5. Matn asosida turli faoliyatlar. So‘z boyligini oshirish badiiy matnlarni o‘qish, yangi so‘zlarni o‘rgatish va ularni gapda ishlatishga o‘rgatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Qisqacha xulosa qilish matnni o‘qib bo‘lgach, bolalarga matnning qisqacha xulosasini yozib yoki og‘zaki ravishda ifodalashni so‘rash. Bu bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

6. Yaratgan asarlarni baholash va muhokama qilish. Yaratuvchanlikka undash bolalarga matn asosida o‘z hikoyalarini yaratishga ruxsat berish. Bu o‘z-o‘zini ifoda etishga va ijodiy fikrlashga yordam beradi. Sodda muhokama o‘qituvchi o‘quvchilardan matn haqida ularning fikrlarini so‘raydi, ular matndan qanday saboqlar olishganini muhokama qiladi.

7. Kreativ vazifalar. Matnni yangi tarzda davom ettirish o‘quvchilarga matnni o‘zgacha tarzda davom ettirish yoki yakunlashni so‘rash. Masalan, “Agar sizning joyingizda bo‘lsangiz, nima qilardingiz?” yoki “Matnni boshqa bir muhitda qanday rivojlantirish mumkin?” kabi savollarni berish. Bunday metodika 1–2-sinf o‘quvchilari uchun samarasini beradi, chunki ular o‘zlariga mos va qiziqarli matnlar orqali dunyoqarashini shakllantiradilar. Badiiy matn bilan ishlashda asosiy maqsad bolalarning adabiy tafakkurini, nutqini va kreativliklarini rivojlantirishdir.

Muhokama (discussion). Matnni o‘qish va uni tahlil qilish. O‘quvchilar matnni o‘qish jarayonida uning g‘oyaviybadiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo‘lib o‘qitish mumkin. Badiiy matnni o‘qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi [6]. Badiiy matnlar 1-sinf o‘quvchilariga o‘zlarini ifodalash, his-tuyg‘ularini anglata olish va atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Bu matnlar bolalar uchun axloqiy saboqlarni o‘rganishga, tasavvurini rivojlantirishga va fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Chumolining jasorati. Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkangan keng o‘tloq bo‘lgan ekan. U yerda qo‘y-qo‘zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahil-inoq yashar ekan. Bir yili yoz juda issiq kelibdi. Yomg‘ir deyarli yog‘mabdi. Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o‘tloq yaqinidagi buloqdan mitti og‘izchasida suv keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko‘rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

– Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kelayotgan suv zarrasi bilan olov o‘chib qolarmidi? Qo‘y bu ishingni, joningni asra! Shunda chumoli yumushidan to‘xtamay, javob beribdi:

– To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman.

Chumolining bu gapi o‘tloq ahliga qattiq ta’sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to‘xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug‘ida, qo‘y-qo‘zilar og‘zida suv keltirib, olovni o‘chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg‘ir yog‘gandek bo‘libdi. Shu tariqa, yong‘in o‘chirilibdi.

1. O‘tloq ahli nima uchun birlashdi?

2. Ayting-chi, ushbu hikoyadagi chumoliga o‘xshash odamlar hayotda ham uchraydimi? Ular o‘z yurtlarini qanday asrashadi?

3. Sizda Vatanni asrash uchun zarradek bo‘lsa ham, imkoniyat bormi? Misol keltiring.

4. Fidoyilik deganda nimani tushunasiz? Hikoyadagi qaysi qahramonlar fidoyilik qilishdi?

1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi quydagi matn orqali o‘quvchilarda ahil inoqlik, fidoyilik bilan birga o‘z vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati shakllanadi.

Sayyohlar. Har yili O‘zbekistonga millionlab sayyohlar tashrif buyuradi. Ular milliy hunarmandchilik buyumlariga juda qiziqadilar. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon kabi tarixiy shaharlarda yirik hunarmandchilik markazlari bor. Yurtimizga kelgan mehmonlar hunarmandlar yasagan buyumlarni tomosha qiladilar. Sayyohlar, shu tariqa, O‘zbekistonning urf-odatlari bilan tanishadilar.

Matn boshidagi uchta gapni yozing. Joy nomlarining tagiga chizing sharti asosida 2-sinf ona tili darsligida berilgan. Bu mashqni bajarishda o‘quvchilarda gap haqida gapni tuzilishi ohang jihatlarini o‘rganishi bilan o‘z vatani, qolaversa, qadimiy shaharlari haqida bilimlari mustahkamlanadi.

Boshlang‘ich sinflar ona tili ta’limida matn tuzilishiga doir tushunchalar N.Bekniyozova tomonidan quyidagicha tasniflangan:

I. Matnning tashkiliy tuzilish jihatlari bilan bog‘liq tushunchalar:

1. Matn va u bilan bog‘liq ravishda umumiy mavzu haqida tushuncha.
2. Xat boshi, matn qismlari (bo‘limlari).
3. Gaplar guruhi (matn qismi) va kichik mavzu.
4. Sarlavha.

II. Matnning leksik-grammatik jihatdan tuzilishi:

1. Gaplarning ketma-ket (zanjir) va parallel bog‘lanishi.
2. Gaplarni o‘zaro bog‘lovchi leksik va grammatik vositalar.
3. Bir abzasga teng matnning birinchi va oxirgi gapi.
4. Abzasda fe’l shakllarining uyg‘unligi.
5. Matnda dialoglarning ishlatilishi [5].

Matniy talqinning aynanligi, muqobilligi uning asosiy g‘ovasini tushunish darajasiga bog‘liq. Zero, matn g‘oya (konsepsiya) haqidagi axborotdir. Demak, matn talqini undan idrok etilgan g oyaning aynanligini bildiradi.

Xulosa va takliflar (conclusion and recommendations). Badiiy matn ustida ishlash metodikasi boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarni nafaqat o‘qish va yozishga, balki ijodiy va tahliliy fikrlashga ham o‘rgatadi. O‘quvchilarga matnni turli usullar orqali o‘rganish imkoniyatini yaratish, ularning tafakkurini rivojlantirish, til va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Badiiy matnni kichik bo‘limlarga bo‘lib, har bir bo‘limni o‘qib chiqib, o‘quvchilarga qisqacha tushuntirishni va keyin ularni savollar orqali muhokama qilishni tashkil etish. Bu usul o‘quvchilarga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va fikr almashishga undaydi. Misol uchun, o‘quvchilarga “Bu voqeada qahramon nima qiladi?” yoki “Sizningcha, bu vaziyatda nima bo‘lishi mumkin?” kabi savollar berish:

▪matnning qahramonlarini, joylarini yoki muhim voqealarini tasvirlab, o‘quvchilarga ularni rasm chizib berishni taklif etish;

▪matnni o‘qib chiqqandan so‘ng, o‘quvchilarga o‘sha matn uchun yangi, qiziqarli sarlavha taklif qilishni so‘rash;

▪o‘quvchilarga matnni o‘qigandan so‘ng, matn asosida qisqacha hikoya yoki hikoyaning davomiy qismini yozishni taklif etish;

▪matndagi asosiy qahramonlarning o‘zgarishlarini kuzatib borish va ularning hissiy va xulqiy rivojlanishlarini tahlil qilish;

▪yuqorida taklif etilgan metodlar o‘quvchilarning nutqini, ijodiy va fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, ularning axloqiy va estetik tushunchalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish ishlarini ham ustuvor tamoyillar asosida tashkil etish zarur. Har tomonlama barkamol, erkin fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etishini hisobga olib, boshlang‘ich ta’lim berish davridanoq o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ularning bog‘lanishli nutqini talab darajasida o‘stirishga oid tizimli ishlar olib borish zarur. Ona tili darslarida berilgan badiiy matnlar ustida nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, matn mazmunidan kelib chiqib, bolani fikrlash, dunyoqarash va nutqiy ravonlik bilan birga vatanparvarlik tuyg‘ularini ham shakllantirishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (references):

(1). Аминова Ф.Ҳ. Ўқувчиларни мулоқот матни яратишга ўргатишнинг дидактик асослари. Пед. фан. номз. …дис. автореф., Т., ЎзПФИТИ, 2007, 22 бет.

(2). 2-sinf ona tili darsligi. S.D.Kuranov. “Navda”, Toshkent, 2023.

(3). 1-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun. “Toshkent”, 2021.

(4). G‘afforova T., G‘ulomova X. 1-sinfda o‘qish dasrlari (o‘qituvchi kitobi). Toshkent, “Sharq”, 2003.

(5). Бекниёзова Н.И. Бошланғич синфлар она тили дарсларида ўқувчиларни матн яратишга ўргатиш методикаси. Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2012, 8–9-бетлар.

(6). Qosimova N. Ona tili ta’limi va yangi pedagogik texnologiyalar. Buxoro, 2009, 103-bet.

(7). Matchonov S. Boshlang‘ich sinflarda ona tili va uni o‘qitish metodikasi (boshlang‘ich ta’lim talabalari uchun darslik). T., “Ishonchli hamkor”, 2021.

Shukurova Farida Xayrilla qizi (Samarqand davlat Chet tillar instituti doktoranti; aliceamethyst59@gmail.com)

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI OSHIRISH USULLARI VA METODLARI

Annotatsiya. *Kommunikativ kompetensiya zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyani oshirishga qaratilgan usullar va metodlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, ta’lim, trening, muloqot, axborot texnologiyalari.*

Шукурова Фарида Хайрилла кызы (докторант Самаркандского государственного института иностранных языков; aliceamethyst59@gmail.com)

МЕТОДЫ И СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Аннотация. *Коммуникативная компетентность является неотъемлемой частью современной системы образования. В данной статье анализируются методы и приёмы, направленные на повышение коммуникативной компетентности.*

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, интерактивные методы, образование, обучение, общение, информационные технологии.*

Shukurova Farida Khairilla kizi (PhD student at Samarkand State Institute of Foreign Languages; aliceamethyst59@gmail.com)

METHODS AND WAYS TO INCREASE COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation. *Communicative competence is an integral part of the modern education system. This article analyzes methods and techniques aimed at improving communicative competence.*

Keywords: *communicative competence, interactive methods, education, training, communication, information technology.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida kommunikativ kompetensiya shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy jamiyatda samarali muloqot qilish qobiliyati nafaqat til bilimlariga ega bo‘lishni, balki madaniyatlararo muloqot, jamoaviy hamkorlik va boshqalar bilan konstruktiv aloqalar o‘rnatishni ham talab qiladi. Kommunikativ kompetensiya bu tilni to‘g‘ri va samarali qo‘llash qobiliyati, madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish mahorati va jamoaviy ishlash qobiliyatlaridan iborat murakkab tizimdir.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida ushbu kompetensiyani rivojlantirish zaruriyati sezilarli darajada ortdi. Ta’limning global integratsiyasi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantirishni, balki ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni ham talab etadi. Ayniqsa, mehnat bozorida talabalar o‘z fikrini aniq ifoda etish, boshqa madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlik qilish va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishda ustunlikka ega bo‘lishlari kerak.

Ushbu maqola kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari va metodlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda interfaol ta’lim yondashuvlari, trening texnikalari va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning muloqot qobiliyatlarini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Nazariy qism. Kommunikativ kompetensiya konsepsiyasi o‘tgan asrning o‘rtalarida tilshunoslik, pedagogika va psixologiya sohalarida shakllangan va bugungi kunga kelib, bu mavzu bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu qismda mavzuga oid nazariy yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar, ularning yutuqlari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari. Kommunikativ kompetensiya bu shaxsning ma’lum bir til va madaniyat doirasida muloqotni samarali amalga oshirishga qaratilgan qobiliyatidir. D. Xayms Hymes tomonidan ilgari surilgan ushbu tushuncha kommunikatsiyaning lingvistik, pragmatik va